

“Korrupsiyaga qarshi kurashish”

Joriy yilning 6-may kuni Termiz davlat universiteti 2-binosi faollar zalida “Ijtimoiy fanlar” va “Yuridik” fakultetlari o‘qituvchilari va talaba yoshlari orasida “**Korrupsiyaga qarshi kurashish**” mavzusida davra suhbatlari o‘tkazildi. Davra suhbatida Surxondaryo viloyati prokuraturasi uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi alohida muhim ishlar bo‘yicha katta tergovchisi **A.Babaniyazov**, Surxondaryo viloyati Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy Kengashi kotibi **S.Abduraimov**, Surxondaryo viloyati hokimligi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat qilish sho‘basi xodimi **Sh.Baboshkin**, “Ijtimoiy fanlar” fakulteti dekani **N.Ochilov** hamda oliygoh korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i **U.Devonov**, 7 nafar o‘qituvchilar va 70 nafar talaba yoshlar qatnashishdi.



Tadbirda soʻzga chiqqanlar korrupsiyaning xavf-xatarlari, ushbu illatga imkoniyat yaratuvchi sabablar, shart-sharoitlar va oqibatlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarlari haqida maʼruza qilishdi. Shuningdek, ular kelajak egalari boʻlgan yoshlarning korrupsiyaga qarshi murosasiz ruhda taʼlim-tarbiya olishi muhim ahamiyatga egaligini hamda ushbu illatga qarshi kurashish – barchamizning burchimiz ekanini alohida taʼkidlab oʻtishdi.



“Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosobatni shakllantirish”

Joriy yilning 17-may kuni Termiz davlat universiteti “Kimyo” fakulteti faollar zalida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturining 25-bandida belgilangan **“Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosobatni shakllantirish”** vazifasiga ko‘ra universitet rektori tomonidan 2023-yil 18-dekabr kuni tasdiqlangan reja-jadvalga asosan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari vakillari bilan oliygohning «Amaliy matematika va intellektual texnologiyalar» fakulteti professor-o‘qituvchilari va talaba yoshlari ishtirokida davra suhbat tadbiri amalga oshirildi.



Davra suhbatida universitet Yoshlar masalalari va ma'naviy - ma'rifiy ishlar bo'yicha 1-prorektori **O.Shofiyev**, rektor maslahatchisi **S.Aliqulov**, Surxondaryo viloyati Termiz shahri Adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti **V.Nazarov**, Surxondaryo viloyati yoshlar Agentligi viloyat boshqarmasi bosh mutaxassisi **S.Murodov**, Surxondaryo viloyati sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi **I.Abrayev**, Surxondaryo viloyati Sudi sudyalari **Z.Xo'jamurodov** va **Sh.Elliye**v, Surxondaryo viloyati IIB jinoyat qidiruv Xizmati korrupsiyaga va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish bo'linmasi boshlig'i **M.Shomurodov** va shu bo'linma katta tezkor vakili **J.Nafasov**, oliygohning korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i **U.Devonov** va shu bo'lim bosh mutaxassisi **A.Mansurov**, fakulteti dekani o'rinbosarlari, 20 nafar professor-o'qituvchilar hamda 450 nafar talaba yoshlar qatnashishdi.



Tadbirda soʻzga chiqqanlar korrupsiyaning xavf-xatarlari, ushbu illatga imkoniyat yaratuvchi sabablar, shart-sharoitlar va oqibatlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi haqida maʼruza qilishdi. Shuningdek, ular oʻz chiqishlarida aholining barcha qatlam vakillari, xususan, kelajak egalari boʻlgan yoshlarning korrupsiyaga qarshi murosasiz ruhda taʼlim-tarbiya olishi muhim ahamiyatga egaligini hamda ushbu illatga qarshi kurashish – barchamizning burchimiz ekanini alohida taʼkidlab oʻtishdi.



“Biz korrupsiyaga qarshimiz”

Joriy yilning 17-may kuni universitetning “Fizika-matematika” fakultetida tahsil olayotgan matematika (sirtqi) ta’lim yo‘nalishi 1-kurs 70 nafar talabalari orasida oliygoh korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo‘limi xodimlari ishtirokida **“Biz korrupsiyaga qarshimiz”** mavzusida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish to‘g‘risida”gi PQ 300-son qarori talablariga muvofiq, yoshlar o‘rtasida korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida davra suhbat tadbiri amalga oshirildi.




Tadbir jarayonida korrupsiya tushunchasi va korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilovchi me'yoriy - huquqiy asoslar yoritildi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muvaffaqiyatli natijalarga erishgan xorijiy davlat tajribasi aks ettirilgan **“Korrupsiyani yenggan mamlakat – Singapur mo‘jizasi”** sarlavhali videorolik talabalarga namoish etildi.



“Korrupsiya - taraqqiyot kushandasi!” va “Biz birgalikda korrupsiyani to‘xtatamiz!”

Joriy yilning 24-may kuni universitet “Amaliy matematika va intellektual texnologiyalar” fakulteti faollar zalida korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi xodimlari tashabbusi bilan oliygoh tyutorlari orasida **“Korrupsiya - taraqqiyot kushandasi!”** va **“Biz birgalikda korrupsiyani to‘xtatamiz!”** mavzularida davra suhbatlari tashkil etildi.



Tadbir jarayonida korrupsiya tushunchasi va korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilovchi me'yoriy - huquqiy asoslar yoritildi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muvaffaqiyatli natijalarga erishgan xorijiy davlat tajribasi aks ettirilgan **“Korrupsiyani yenggan mamlakat – Singapur mo'jizasi”** sarlavhali videorolik tyutorlarga namoish etildi.

Tadbirda talabalarni turar joy bilan ta'minlash, texnik foydalanish va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo'limi xodimlari hamda 47 nafar tyutorlar qatnashishdi.

